

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUDYALAR OLIY KENGASHI
HUZURIDAGI SUDYALAR OLIY MAKTABI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD/37/27.02.2020.Y.107.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
AKADEMIYASI**

MIRXALILOVA GULNOZA ILXOMJON QIZI

**JAMOAT XAVFSIZLIGINI DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK ASOSIDA
TA’MINLASH ISTIQBOLLARI**

12.00.03 – Fuqarolik huquqi. Tadbirkorlik huquqi.
Oila huquqi. Xalqaro xususiy huquq

**yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Doktorlik (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата докторской диссертации (PhD)
Content of the abstract of the doctoral (PhD) dissertation

Mirxalilova Gulnoza Ilhomjon qizi

Jamoat xavfsizligini davlat-xususiy sheriklik asosida ta`minlash
istiqbollari.....3

Мирхалилова Гулноза Илхомжон кизи

Перспективы обеспечения общественной безопасности на основе
государственно-частного партнерства.....24

Mirkhalilova Gulnoza Ilhomjon kizi

Prospects for ensuring public safety based on public-private
partnership.....47

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....51

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUDYALAR OLIY KENGASHI
HUZURIDAGI SUDYALAR OLIY MAKTABI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD/37/27.02.2020.Y.107.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
AKADEMIYASI**

MIRXALILOVA GULNOZA ILXOMJON QIZI

**JAMOAT XAVFSIZLIGINI DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK ASOSIDA
TA’MINLASH ISTIQBOLLARI**

12.00.03 – Fuqarolik huquqi. Tadbirkorlik huquqi.
Oila huquqi. Xalqaro xususiy huquq

**yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida V2019.1.PhD/Yu244 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.sudyalaroliymaktabi.uz) va «ZiyoNet» Axborot-ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Imomov Nurillo Fayzullayevich

yuridik fanlar doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Nasriyev Ilhom Ismoilovich

yuridik fanlar doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Xudoybergenov Behzod Baxtiyorovich

yuridik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar Oliy Kengashi huzuridagi Sudyalar Oliy maktabi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.37/27.02.2020.YU.107.01 raqamli ilmiy kengashning 2024 yil « 27 » may kuni soat 14:30 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100097, Toshkent sh., Chilonzor tumani, Cho‘lponota ko‘chasi, 6-uy. Tel.: (99855) 501-01-89; faks: (99855) 501-01-89; e-mail: sudyalaroliymaktabi@umail.uz).

Dissertatsiya (PhD) bilan O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar Oliy Kengashi huzuridagi Sudyalar Oliy maktabining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___-raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100097, Toshkent sh., Chilonzor tumani, Cho‘lponota ko‘chasi, 6-uy. Tel.: (99855) 501-01-89; faks: (99855) 501-01-89; e-mail: sudyalaroliymaktabi@umail.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil “_____” _____ kuni tarqatildi.
(2024 yil “_____” _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

K.O.Sindarov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, yuridik fanlar doktori, professor

D.R.Artikov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

B.B. Samarxodjayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda fuqarolarning farovonligi va tinchligini, jamoat xavfsizligini ta'minlashda xususiy sektorning moliyaviy imkoniyatlaridan foydalanishga va shu orqali ushbu sohada byudjetga tushayotgan yukni kamaytirishga qaratilgan institusional o'zgarishlar uzoq vaqtlardan buyon qo'llanib kelinadi. O'z navbatida, dunyoda jamoat xavfsizligiga tahdidlar ortib borayotgani bois ushbu institut yanada dolzarb tus olmoqda. Masalan, o'tgan 2022-yilda kiberjinoyatchilik tufayli ko'rilgan zararining umumiy miqdori 8,4 trln dollarni tashkil etgan bo'lsa, 2026-yilga borib bu ko'rsatkich 20 trln dollarga, o'sish ko'rsatkichi esa 120 % ga yetishi bashorat qilinmoqda¹. Qolaversa, mamlakatlarning xavfsizligi nafaqat ushbu davlatlar fuqarolarining xotirjamligiga, balki ularga tashrif buyurayotgan sayyohlar ko'payishiga, investitsiya muhitining jozibadorligi oshishiga ham xizmat qiladi. Bu borada har yili davlatlarning yillik reytingi e'lon qilinadi. Misol uchun, 2021-yilda dunyoning eng xavfsiz davlatlari reytingida yuqori o'ntalikka Islandiya, Yangi Zelandiya, Daniya, Portugaliya, Sloveniya, Avstriya va boshqa davlatlar kiritilgan bo'lsa, O'zbekiston ushbu reytingda 103-o'rinni egalladi². Numbeo tahliliy guruhining mutaxassislari tomonidan e'lon qilingan dunyo mamlakatlaridagi qasddan odam o'ldirish, bosqinchilik, talonchilik va boshqa jinoyatlarga oid statistik ma'lumotlar hamda ushbu mamlakatlarning aholisi va sayyohlar o'rtasida o'tkazilgan so'rov asosida 2021-yilda e'lon qilgan xavfsizlik reytingida (Crime Index by Country) dastlabki uch o'rinni Qatar, Tayvan va Birlashgan Arab Amirliklari egalladi. O'zbekiston mazkur ro'yxatda 40-o'rinda ko'rsatilgan³. Bu esa ayni paytda dunyo davlatlaridan xavfsizlikni, shu jumladan jamoat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan yangi huquqiy mexanizm va vositalarni izlash hamda ijtimoiy hayotga joriy etishni taqozo etmoqda. Ana shunday samarali mexanizmlardan biri jamoat xavfsizligini davlat-xususiy sheriklik asosida taminlash sanaladi.

Jahonda rivojlangan davlatlarda jamoat xavfsizligini ta'minlash uchun DXSHdan(bundan buyon matnda DXSH deb yuritiladi) foydalanishga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. Xususan, Buyuk Britaniya, AQSH, Germaniya, Fransiya kabi mamlakatlarda jamoat xavfsizligining asosiy yo'nalishlari sifatida yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash, ozodlikdan mahrum etish muassasalarining ishlarini DXSH asosida yuritish, jinoyatchilikka qarshi kurash kabi sohalarda DXSH keng qo'llanadi. Bunda xususiy sherik bilan tuziladigan shartnomalarda asosiy e'tibor taraflarning huquq va majburiyatlarini, jamoat xavfsizligini ta'minlash maqsadida ajratilgan mol-mulkka nisbatan mulk huquqining kelajakdagi holatini, xususiy sherik o'z sarmoyasi evaziga oladigan ulush yoki haq miqdorini belgilash kabi masalalarga qaratiladi. Shuningdek, DXSH

¹ 50+ статистических данных, фактов и тенденций кибербезопасности на 2023 год. – URL: <https://www.websiterating.com/ru/research/cybersecurity-statistics-facts/>

² Страны мира по уровню безопасности в 2022 году. – URL: <https://gilsocmin.ru/ru/node/1530>

³ Рейтинг безопасности стран 2021 года. – URL: <https://ekec.ru/rejting-bezopasnosti-stran-2021-goda-crime-index-by-country/>

shartnomalari orqali jamoat xavfsizligining tegishli sohalari xususiy sherikni jalb qilishning huquqiy asoslarini hamda ushbu sohada xususiy sherik faoliyatining chegaralarini belgilashning huquqiy asoslarini ishlab chiqish ham dolzarb hisoblanadi.

Mamlakatimizda jamoat xavfsizligi sohasida DXSH institutining rivojlanishi hali boshlang'ich bosqichda bo'lib, hozir undan asosan yo'l harakati xavfsizligi, xavfsiz mahalla va boshqa ijtimoiy yo'nalishlardagina foydalanilmoqda. Bu borada tegishli qonunchilik hujjatlari ishlab chiqilgan. Shunday bo'lsa-da, jamoat xavfsizligini ta'minlashda xususiy sarmoyaning ulushini kengaytirish, jinoyatchilikka qarshi kurashda videokuzatuv, sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llash, turli tartibsizliklar, qo'poruvchilik hamda fuqarolarning hayoti va mol-mulkiga nisbatan yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavf-xatarning oldini olish tizimlarini yaratishda DXSH imkoniyatlaridan foydalanishning huquqiy va shartnomaviy qoidalarini takomillashtirish zarurati mavjud. Shuningdek, kiberxavfsizlikni ta'minlash, kiberjinoyatlarning oldini olishda DXSH shartnomalari tuzish, tegishli kompyuter dasturlarini yaratish va bunda taraflarning shartnomaviy-huquqiy majburiyatlariga oid qonunchilik asoslarini shakllantirishni talab etadi.

Mazkur dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasining 1995-yil 21-dekabrda qabul qilingan Fuqarolik kodeksi, "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi (2012-yil 2-may), "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi (2016-yil 16-sentabr), "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida"gi (2019-yil 10-may) qonunlari; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi (2022-yil 28-yanvar, PF–60-son), "O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasi tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi (2021-yil 29-noyabr, PF–27-son) farmonlari hamda "Davlat tomonidan tartibga solinadigan sohalarga xususiy sektorni jalb etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi (2020-yil 7-dekabr, PQ–4913-son) qarorida, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar maxkamasining 2021-yil 21-apreldagi "Yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash sohasiga xususiy sektorni jalb etishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 232-son xamda 2021-yil 20-sentabrdagi "Mahallalarda jamoat tartibini saqlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 588-qarorlarida shuningdek mavzuga oid boshqa qonunchilik hujjatlarida belgilangan ustuvor vazifalarning bajarilishiga muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Tadqiqot mavzusining o'rganilganlik darajasi. Mavzuni tadqiq etishda jamoat xavfsizligini davlat-xususiy sheriklik asosida ta'minlash istiqbollari bilan bog'liq huquqiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari, huquqni qo'llash amaliyoti hamda yuridik fandagi

konseptual yondashuvlar, nazariy qarashlar bayon etilgan adabiyotlardan foydalanildi.

O‘zbekiston olimlaridan jamoat xavfsizligini davlat-xususiy sheriklik asosida ta’minlashning ayrim jihatlarini X. Raxmonqulov O. Oqyulov, N. Normatov, O. Kamalov, M. Baratov, N. Kuldashev, B. Kayumovlar o‘rganishgan.

Xorijiy mamalakatlarining anglo-sakson huquq tizimida – R. Osei-Kei, Ismail Tulukcu, A. Renda, S. Malik, S. Kaur, A. Peresin, E. O. Eriksen, M. Carr, M. Parker, M. Taylor, E. E. Hoffer, K. L. Petersen, G. A. Hodge, C. Greve;

MDHga a’zo davlatlarning huquqshunos professorlaridan Uzunov F.V, Laptiy T.M, Varnavskiy V.G, Pasechnik M.V, Pashinskaya K.S, Vinnik O. G, Simson O, Polyakova O. M, Dergachova V.V, Malin O.L, Melnik A.F, Fomenko O.P, Petrik S.M, Rubsova N. V, Cheremuxin S.A, Antonova K. A, F. V. Uzunov, A. S. Zaskalkin, A. F. Melnik, S. V. Podgayets, O. P. Fomenko, I. N. Zubov, S. V. Shoroxov kabi olimlar tadqiq etishgan⁴.

Biroq, O‘zbekistonda dissertatsiya mavzusi doirasida kompleks tadqiqot natijalari aks ettirilgan yaxlit ilmiy ish xozirda mavjud emas.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Fuqaroviy-huquqiy munosabatlarda ichki ishlar organlari ishtiroki: holati, muammolari va yechimlari” ustuvor yo‘nalishi doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Dissertatsiyaning maqsadi jamoat xavfsizligini DXSH asosida ta’minlash istiqbollari bilan bog‘liq ilmiy-nazariy va amaliy muammolarni aniqlash hamda qonunchilikni takomillashtirishga doir taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

– “davlat-xususiy sheriklik” institutning rivojlanish tendensiyalarini o‘rganib chiqish;

– jamoat xavfsizligini taminlashda davlat-xususiy sheriklikni amalga oshirishning huquqiy mexanizmlarini tadqiq etib, bu boradagi qonunchilikni takomillashtirishga oid taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

– davlat-xususiy sheriklikda xususiy sheriklarning huquqlarini himoya qilish xususiyatlarini o‘rganish;

– jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasida DXSHga oid huquqni qo‘llash amaliyotini o‘rganish orqali DXSH bitimi taraflarining huquqlarini samarali himoya qilish va huquqni qo‘llash amaliyotini unifikatsiya qilish (bixillashtirish) bo‘yicha takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti jamoat xavfsizligini DXSH asosida ta’minlash bilan bog‘liq ijtimoiy munosabatlar tizimi hisoblanadi.

⁴ Asarlar ro‘yxati foydalanilgan adabiyotlar qismida berilgan.

Tadqiqotning predmetini O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi va huquqni qo‘llash amaliyoti, xorijiy mamlakatlar tajribasi, shuningdek, yuridik fanda mavjud bo‘lgan yondashuvlar, davlat-xususiy sheriklik sohasidagi ilmiy-nazariy qarashlar, jamoat xavfsizligini DXSH asosida ta‘minlashni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar, shuningdek qonunchilikni takomillashtirish va huquqni qo‘llash amaliyoti bilan bog‘liq ilmiy-nazariy, huquqiy muammolari xamda tadqiqot mavzusiga tegishli ilmiy ish va adabiyotlar tahlillari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida tizimli-tuzilmaviy, formal-yuridik, qiyosiy-huquqiy, mantiqiy (tahlil, sintez, deduksiya va induksiya), statistik kabi usullar qo‘llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

foydalanganlik uchun to‘lov – tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) iste‘mol qiluvchilardan DXSH to‘g‘risidagi bitimga muvofiq DXSH loyihasini amalga oshirish doirasida xususiy sherik tomonidan yig‘ib olinadigan to‘lovlarni aniqlashtirish zarurligi asoslantirildi;

davlat-xususiy sheriklik loyihasining konsepsiyasi tasdiqlangan taqdirda, potensial davlat sherigi davlat-xususiy sheriklik loyihasining konsepsiyasini hamda boshqa talabgorlarga davlat-xususiy sheriklik loyihasining amalga oshirilishidan manfaatdorligi to‘g‘risida ma‘lum qilish taklifini o‘zining rasmiy veb-saytida, vakolatli davlat organining rasmiy veb-saytida va boshqa maxsus veb-saytlarda besh kalendar kuni ichida e‘lon qilinishi kerakligi asoslandi;

davlat sherigi DXSH to‘g‘risidagi bitimni tuzish huquqi uchun tender o‘tkazishni tartibga soluvchi tender hujjatlari va DXSH to‘g‘risidagi bitim loyihasini tayyorlanishi va loyihaning umumiy qiymati bir million AQSH dollaridan ortiq bo‘lgan taqdirda, kelishish uchun vakolatli davlat organiga taqdim etilishi asoslantirildi;

DXSH to‘g‘risidagi bitimning amal qilish muddatlariga muvofiqligini ta‘minlashni tashkil etish zarurligi dalillandi.

Ichki ishlar vazirligi tizimida yo‘l harakati xavfsizligini ta‘minlash sohasiga davlat-xususiy sheriklik asosida xususiy sektorni jalb etishda namunaviy shartnoma shaklidan foydalangan holda davlat va xususiy biznes o‘rtasidagi shartnomaviy munosabatlarni tartibga solishga asos bo‘luvchi qonunchilik amaliyotini takomillashtirish zarurati asoslantirildi.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

jamoat xavfsizligi sohasidagi davlat-xususiy sheriklik bitimining mazmun va mohiyati, unga nisbatan ilmiy qarashlar va yondashuvlar, shakllangan milliy va xorijiy sivilistik doktrina asosida jamoat xavfsizligi sohasidagi davlat-xususiy sheriklik bitimining mualliflik ta‘rifi shakllantirilgan;

jamoat xavfsizligi sohasidagi davlat-xususiy sheriklik munosabatlarining asoslari, mezonlari va tasnifi tadqiq etilib, ushbu turdagi hamkorlik munosabatlari yaxlit bitim asosida emas, balki konsessiya, ijara, autsorsing, oldi-sotdi, pullik xizmatlar, investitsiyalar va shu kabi boshqa fuqarolik-huquqiy shartnomalar tuzish orqali amalga oshirilishi asoslantirilgan;

jamoat xavfsizligi sohasidagi davlat-xususiy sheriklik bitimining predmeti tarkibi (jamoat xavfsizligini ta‘minlashdagi vositalar, mol-mulklar, mulkiy

komplekslar, ijtimoiy infratuzilmalar, ishlar va xizmatlar) kundan-kunga boyib va kengayib borayotganligidan kelib chiqib, ushbu sohadagi hamkorlikni huquqiy tartibga solishga oid universal mexanizm sifatida shartnomalar erkinligi hamda nomlanmagan shartnomalar doktrinadan foydalanishga oid qarashlar ishlab chiqilgan;

DXSH bitimi taraflari huquqlarining mazmun-mohiyati o'rganilib, ularning muayyan huquqlarini amalga oshirish va himoya qilishni qiyinlashtirayotgan qonunchilikdagi bo'shliqlarni to'ldirish maqsadida DXSH to'g'risidagi Qonunga takliflar berildi;

DXSH bitimi bo'yicha o'tkaziladigan tender savdolarida g'olibni aniqlash, DXSH bitimini tuzishda davlat sherigining majburiyatlarini aniqlashtirish zarurligi haqida xulosa chiqarilib, FKga takliflar berildi;

jamoat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan DXSH bitimini tuzishda xususiy sherik tashabbuslarining huquqiy asoslarini rasmiylashtirishga oid takliflar ilgari surildi;

DXSH bitimi doirasida tadbirkorlik subyektlari tomonidan avtomobil yo'llarida yo'l harakati qoidalari buzilganligini qayd etuvchi maxsus avtomatlashtirilgan foto va video dasturiy-texnik vositalarini o'rnatish va ulardan foydalanish tartibi ishlab chiqildi;

davlat-xususiy sheriklikda xususiy sherik va kreditorlarning huquqlarini himoya qilishning huquqiy asoslari, jamoat xavfsizligini sifatli ta'minlashda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning va tizimni modernizatsiyalashning ustuvor yo'nalishlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi unda ilmiy usullardan foydalanilgani, tadqiqot doirasida foydalanilgan nazariy ma'lumotlar rasmiy manbalardan olingani, xorijiy tajriba va milliy qonun hujjatlari qiyosiy tahlil qilingani, xulosa, taklif va tavsiyalar yetakchi milliy nashrlarda e'lon qilinib, amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalar vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan ta'minlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining *ilmiy ahamiyati* dissertatsiyada keltirilgan ilmiy-nazariy xulosa, taklif va tavsiyalardan ilmiy tadqiqot faoliyatida, qonun ijodkorligida, huquqni qo'llash amaliyotida, tegishli qonunchilik normalarini sharhlashda foydalanish mumkinligida ko'rinadi. Tadqiqot natijalarining *amaliy ahamiyati* ulardan huquqni qo'llash amaliyotida, xususan normativ-huquqiy hujjatlarni sharxlashda, ularga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish, huquqni qo'llashning huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish kabi sohalarda foydalanishi mumkinligida namoyon bo'ladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tadqiqot ishi bo'yicha olingan ilmiy natijalardan quyidagilarda foydalanilgan:

foydalanganlik uchun to'lov – tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) iste'mol qiluvchilardan DXSH to'g'risidagi bitimga muvofiq DXSH loyihasini amalga oshirish doirasida xususiy sherik tomonidan yig'ib olinadigan to'lovlarni aniqlashtirish haqidagi taklif O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 26-aprelda "Davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirish

tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi 259-son qarori bilan tasdiqlangan Nizomning 1-bob, 3-band 7-xatboshida o'z aksini topgan. (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Axborot-tahlil va yuridik ta'minlash departamentining 2023-yil 14-apreldagi №122011-sonli dalolatnomasi). Ushbu taklif DXSH loyihasini amalga oshirish doirasida xususiy sherik tomonidan yig'ib olinadigan to'lovlarni aniqlashtirishga xizmat qilgan.

davlat-xususiy sheriklik loyihasining konsepsiyasi tasdiqlangan taqdirda, potensial davlat sherigi davlat-xususiy sheriklik loyihasining konsepsiyasini hamda boshqa talabgorlarga davlat-xususiy sheriklik loyihasining amalga oshirilishidan manfaatdorligi to'g'risida ma'lum qilish taklifini o'zining rasmiy veb-saytida, vakolatli davlat organining rasmiy veb-saytida va boshqa maxsus veb-saytlarda besh kalendar kun ichida e'lon qilinishi haqidagi taklif O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 26-aprelda "Davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirish tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi 259-son qarori bilan tasdiqlangan Nizomning 2-bob, 4-bandida o'z aksini topgan (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Axborot-tahlil va yuridik ta'minlash departamentining 2023-yil 14-apreldagi №122011-sonli dalolatnomasi). Mazkur taklif asosida davlat-xususiy sheriklik loyihasining konsepsiyasini davlat-xususiy sheriklik loyihasini amalga oshiruvchi manfaatdorlar o'zining rasmiy veb-saytida besh kalendar kuni ichida e'lon qilish tartibi joriy qilingan.

davlat sherigi DXSH to'g'risidagi bitimni tuzish huquqi uchun tender o'tkazishni tartibga soluvchi tender hujjatlari va DXSH to'g'risidagi bitim loyihasini tayyorlanishi va loyihaning umumiy qiymati bir million AQSH dollaridan ortiq bo'lgan taqdirda, kelishish uchun vakolatli davlat organiga taqdim etilishi haqidagi taklif O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 26-aprelda "Davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirish tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi 259-son qarori bilan tasdiqlangan Nizomning 3-bob, 7-bandida o'z aksini topgan. (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Axborot-tahlil va yuridik ta'minlash departamentining 2023-yil 14-apreldagi №122011-sonli dalolatnomasi). davlat sherigi DXSH to'g'risidagi bitimni tuzish huquqi uchun tender o'tkazishni tartibga soluvchi tender hujjatlari va DXSH to'g'risidagi bitim loyihasini tayyorlanishi va loyihaning umumiy qiymati bir million AQSH dollaridan ortiq bo'lgan taqdirda, kelishish uchun vakolatli davlat organiga taqdim etilish tartibi joriy qilingan.

DXSH to'g'risidagi bitimning amal qilish muddatlariga muvofiqligini ta'minlashni tashkil etish haqidagi taklif O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 26-aprelda "Davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirish tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi 259-son qarori bilan tasdiqlangan Nizomning 7-bob 27-bandida o'z aksini topgan. (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Axborot-tahlil va yuridik ta'minlash departamentining 2023-yil 14-apreldagi №122011-sonli dalolatnomasi). Ushbu taklif DXSH to'g'risidagi bitimning amal qilish muddatlariga muvofiqligini ta'minlashni tashkil etishga xizmat qilgan.

Ichki ishlar vazirligi tizimida yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash sohasiga davlat-xususiy sheriklik asosida xususiy sektorni jalb etishga doir qonunchilik amaliyotini takomillashtirish xaqidagi takliflar IIV JXD Yo‘l harakati xavfsizligi xizmati tomonidan norma ijodkorligida inobatga olindi. Ushbu taklif Ichki ishlar vazirligi tizimida yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash sohasiga davlat-xususiy sheriklik asosida xususiy sektorni jalb etishga doir qonunchilik amaliyotini takomillashtirish xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari (xalqaro miqyosdagi bitta va respublika miqyosidagi ikkita) ilmiy-amaliy anjumanda muhokamadan o‘tgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi va uning natijasi bo‘yicha ishlab chiqilgan xulosa, taklif va tavsiyalar mamlakatimizda chop etilgan nashrlarda va ilmiy-amaliy (onlayn) konferensiyalar materiallarida o‘z ifodasini topgan jami 14 ta ilmiy maqolada e‘lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat bo‘lib, asosiy matnning (foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tashqari) hajmi 140 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekt hamda predmeti tavsiflangan, O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, ularning natijalarini amaliyotda joriy etilish holati, shuningdek nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Tadqiqot ishining birinchi bobi – **“Jamoat xavfsizligini davlat-xususiy sheriklik asosida ta’minlashning sivilistik tavsifi”** deb nomlanib, unda davlat-xususiy sheriklik tushunchasi va rivojlanish tendensiyasi, jamoat xavfsizligi sohasida davlat-xususiy sheriklik institutini joriy qilishning huquqiy asoslari tadqiq etilgan.

“Davlat-xususiy sheriklik” atamasi “Public – Private Partnership” (DXSH) atamasining so‘zma-so‘z tarjimasini bo‘lib, aksariyat xorijiy mamlakatlarda davlat va boshqa tadbirkorlik subyektlari o‘rtasidagi hamkorlikning mavjud shakllarini aniqlash uchun ishlatiladi. Mavjud ilmiy qarashlarning tanqidiy tahlili shuni ko‘rsatdiki, mahalliy va xorijiy olimlar orasida DXSH ta’rifi sezilarli farqlarni o‘z ichiga oladi.

Dissertatsiyada huquqshunos olimlar (S.Grishenko, I.V.Zapatrina, G.L.Znamenskiy)ning fikrlari o‘rganilib, davlat-xususiy sheriklik konsepsiyasini talqin qilishda yondashuvlarda ularni birlashtiruvchi element davlat ehtiyojlarini qondirish maqsadida davlat institutlari va xususiy sektorning hamkorligi ekanligi asoslantiriladi. Zero, Davlat-xususiy sheriklik konsepsiyasining mohiyati

va huquqiy yukini qonuniy ravishda birlashtirish 2019-yil 10-maydagi O‘RQ-537-son “Davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risida” gi Qonuni bilan belgilanadi.

Dissertatsiyada DXSHni qonun normalari bilan tartibga solinadigan, asosan, tanlov va shartnoma asosida, davlat boshqaruvi organlari va xususiy xo‘jalik yurituvchi subektlarning muhim ijtimoiy ahamiyatga ega loyihalarni amalga oshirishga qaratilgan uzoq muddatli hamkorligi sifatida tushunish taklif qilinadi. Muallifning fikricha, DXSHning davlat va biznes o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning boshqa shakllaridan ajratib turadigan eng muhim xususiyati bu davlat va xususiy mulkchilikning o‘zaro ta’siriga asoslangan, o‘zlashtirish munosabatlarining o‘ziga xos xususiyatlarini shakllantiradigan aralash iqtisodiyotda faoliyat yuritishdir.

Ishda keltirilishicha, davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi ushbu turdagi o‘zaro munosabatlar tizimi uning keng qo‘llanilishini hisobga olgan holda yetarli miqdordagi amalga oshirish shakllarini o‘z ichiga olishi kerak. DXSHni amalga oshirish doirasida quyidagi turdagi shartnomalar tuzilishi mumkin: imtiyoz berish; mulkni boshqarish (DXSH doirasida tuzilgan shartnomada nazarda tutilgan hollarda xususiy sherik investitsiya majburiyatlari bo‘yicha); birgalikdagi faoliyat; boshqa shartnomalar.

Dissertatsiyada bir qator mutaxassislar (O.M.Polyakova, I.Tulukcu, A.Renda, L.Shrefler) va ko‘plab xorijiy mamlakatlar (Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya, Irlandiya, Italiya, AQSH, Yaponiya, Singapur, Kanada)ning tajribasi tahlil qilinib, DXSH asosidagi investitsion loyihalarda xususiy sektor davlat tomonidan belgilangan shartlar va talablar asosida investitsion loyihalarni moliyalashtirish va boshqarish vazifalarini amalga oshirishga xizmat qilish asoslantiriladi.

Muallifning fikricha, bugungi kunda davlat-xususiy sherikligi asosida dunyo amaliyotida mamlakat infratuzilmasini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jahon amaliyotiga nazar tashlasak davlat-xususiy sherikligini amalga oshirish uchun turli xil modellar, shakllar, turlar va o‘ziga xos imkoniyatlar mavjuddir. Davlat-xususiy sherikligi asosidagi loyihalarni samaradorligini aniqlashda, eng avvalo, uning shartnoma shakli muhim ahamiyatga ega. Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizda davlat-xususiy sheriklik institutini rivojlantirish hamda istiqbolli rejalarini belgilash o‘ta dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Dissertatsiyada huquqshunos olimlar (M.X.Baratov, N.A.Kuldashev, A.A.Karmolitskiy, A.A.Nikolayev)ning fikrlari hamda xorijiy mamlakatlar (AQSH, BuyukBritaniya) tajribasi o‘rganilib, jamoat xavfsizligi sohasidagi DXSHning amal qilishi xususiyatlari yoritiladi. Ishda keltirilishicha, hozirda davlatning huquqni muhofaza qilish va jamoat xavfsizligini ta’minlash funksiyasining ayrim yo‘nalishlarini DXSH ko‘rinishida xususiy sheriklarga o‘tkazishning axloqiy jihatlari va samaradorligi masalalarini tahlil qilish hayotimizga axborot kommunikatsion texnologiyalar jadal kirib kelayotgan sharoitda unachalik dolzarblik kasb etmaydi. Shuningdek huquqbuzarliklarni aniqlash, jamoat xavfsizligi darajasini baholash va uni ta’minlashga qaratilgan aniq yechimlar ishlab chiqishda sun’iy intellektni keng qo‘llash imkoniyatlari jamoat xavfsizligi sohasidagi DXSHning axloqiy jihatlari bir muncha

pasaytiradi. Inson omili kamaytirilgan hamda barcha qat'iy ravishda axborot texnologiyalari va sun'iy intellektga asoslangan tizimlar jamoat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan davlat organlari va davlat byudjetiga tushayotgan yukni kamaytirishga imkon beradi. Bunda huquqshunoslikning, xususan sivilistika fanlarining vazifasi jamoat xavfsizligi sohasidagi DXSHning huquqiy asoslarini hamda ularni tashkil etish, amalga oshirish va tartibga solishning shartnomaviy-huquqiy kontruksiya hamda mexanizmlarini yaratish hamda tatbiq qilishdan iboratdir.

Dissertatsiyaning **“Jamoat xavfsizligi sohasidagi davlat-xususiy sheriklikni shartnomaviy-huquqiy tartibga solish”** nomli ikkinchi bobida davlat-xususiy sheriklik bitimining taraflarining huquqiy maqomini aniqlash muammolari, davlat-xususiy sheriklik bitimi taraflarning huquq va majburiyatlarini belgilash, davlat-xususiy sheriklik bitim taraflarning fuqarolik-huquqiy javobgarligi masalalari tahlil qilingan.

Har qanday bitim ishtirokchilar tomonidan tuziladi va amalga oshiriladi. DXSH bitimi ham ikki yoki ko'p tomonlama bitimlarning biri turi sifatida bir nechta shaxslar tomonidan tuziladi va shu sababli unda qatnashuvchi taraflar muayyan huquq va burchlarga ega bo'ladilar. Zero, ikki yoki ko'p tomonlama bitimlarga xos bo'lgan xususiyat, ya'ni ishtirokchilarning erki asosida bitimning vujudga kelishi aynan DXSH uchun ham xosdir.

Ishda huquqshunos olimlar (O.M.Golovinov, L.A.Dmitrichenko, N.V.Bezbax, H.R.Rahmonqulov)ning fikrlari tahlil qilinib, DXSH bitimi “davlat sherigi (davlat, munitsipal yoki boshqa ommaviy-huquqiy tuzilma) tomonidan xususiy sherikka (tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxs: tijorat tashkiloti, yakka tartibdagi tadbirkor) transport infratuzilmasi, uy-joy kommunal xo'jaligi infratuzilmasi, sport inshootlari, maktablar, kasalxonalar va shu kabi boshqa ijtimoiy infratuzilma obyektlarini qurilishni qisman yoki to'liq moliyalashtirish, ishlatish, rekonstruksiya qilish va boshqarish funksiyalari topshirishni anglatadi” degan xulosaga kelinadi. Muallifning fikricha, DXSH bitimini ma'muriy-huquqiy shartnoma sifatida ko'rib chiqish uchun yetarli asoslar yo'q. DXSH bitimi tomonlarning tengligi, erk muxtoriyati va shartnoma erkinligi asosida fuqarolik qonunchiligi normalari bilan tartibga solinadi va fuqarolik shartnomasining xususiyatlariga to'liq mos keladi.

Dissertatsiyada amalga oshirilgan tahlillardan kelib chiqib “Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida”gi qonunni “Davlat-xususiy sheriklik shakllari” nomli 9¹-modda bilan to'ldirish va ushbu moddaning tahriri taklif etiladi.

Tadqiqotda bir qator xorijlik olimlar (A.Peresin, P.Kerr, B.Buzan, O.Waever, E.O.Eriksen, M.Parker, M.Taylor, E.E.Hoffer, G.A.Hodge, C.Greve)ning fikrlari o'rganilib, terrorizmga qarshi kurash, favqulodda vaziyatlar hamda ekologik, texnogen halokatlarda jamoat xavfsizligini ta'minlashga oid tahlillar amalga oshirilgan.

Davlat-xususiy sheriklikdagi davlatning roli barcha davlat muassasalari va idoralari o'z ichiga oladi. Ammo shuni ta'kidlash kerakki, davlat-xususiy sheriklik shartnomalarini tuzishga ruxsat berilgan davlat sektori organlari har bir mamlakatda farq qilishi mumkin. Umumiy huquqda davlat tashkiloti (muassasasi)

nomidan DXSH shartnomasini imzolagan davlat korxonasi direktori yoki tayinlangan vazirlik bunday shartnomalarda imzolash huquqiga ega bo‘ladi.

Davlat sherigi davlat muassasasi rolini bajaradigan o‘nta asosiy ishtirokchilarni ta’kidlab o‘tish mumkin. Bular konsessioner, tarmoq rejalashtiruvchisi, moliyachi, mijoz, loyiha menejeri, inspektor, davlat-xususiy sheriklik nazoratchisi, shartnoma menejeri, ekolog va jamoat vakili. Jamoat xavfsizligi sohasidagi davlat sherigi esa Ichki ishlar vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi va ushbu vazirliklar tarkibidagi quyi turuvchi idoralar bo‘lishi mumkin.

DXSH sohasidagi xususiy sherik - bu tenderda ishtirok etadigan, ijtimoiy obyektini moliyalashtiradigan, rivojlantiradigan va ekspluatatsiya qiladigan yuridik shaxsdir. U xususiy kompaniyalar va ishlab chiquvchilardan iborat bo‘lishi mumkin.

Tadqiqotda amalga oshirilgan tahlillar asosida “Davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risida”gi qonunni “Davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risidagi bitim bo‘yicha garov narsasi” nomli 35²-modda bilan to‘ldirish takli qilinadi. Shuningdek, muallif “Davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risida”gi qonunni “Davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risidagi shartnoma bo‘yicha talabdan voz kechish va xususiy sherikning qarzini o‘tkazish” (29¹-modda) hamda “Xususiy sherikni almashtirish” (29²-modda) nomli moddalar bilan to‘ldirishni taklif qiladi.

Ishda keltirilishicha, jamoat xavfsizligi sohasidagi DXSH bitimi doirasida ham davlat sherigi va xususiy sherikning yuridik javobgarlik ham ommaviy-huquqiy, ham xususiy-huquqiy tus kasb etadi.

DXSH bitimida majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan fuqarolik-huquqiy javobgarlikning navbatdagi shakli – bu zararning mavjudligidan qat’iy nazar qo‘llaniladigan neustoykadir. Ushbu javobgarlik chorasining miqdorini isbotlash talab etilmaydi va aniq huquqbuzarni jazolash tusini ifoda etadi. Bu, odatda, qonun bilan belgilangan yoki shartnoma taraflari tomonidan yo‘l qo‘yilgan doirada belgilangan va asosiy qarz miqdori, neustoyka (foiz) miqdori va (penya uchun) ijroning kechiktirilish kunlari (boshqa ko‘rsatkichlar) soniga bog‘liq bo‘ladi.

Muallifning fikricha, fuqarolik-huquqiy javobgarlik turlarini tizimlashtirish muhim ahamiyatga ega, bu DXSH bitimi ishtirokchilarining javobgarligi mohiyatini ochib beradi va fuqarolik munosabatlarida bunday ishtirokchilarning muayyan DXSH bitimi uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlik choralari qo‘llash shartlari mezonlarini aniqlashtirish imkonini beradi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Jamoat xavfsizligida xususiy sheriklikni amalga oshirishning huquqiy mexanizmi”**ga bag‘ishlanadi. Unda davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risidagi bitimni tuzish huquqi uchun tenderni tashkil etish va o‘tkazishning ilmiy-amaliy muammolari, davlat xususiy-sheriklik to‘g‘risidagi bitimni tuzish, uning asosiy shartlari va turlarining tahlili, davlat-xususiy sheriklikda xususiy sherik va kreditorlarning manfaatlarini himoya qilish muammolari tahlil qilingan.

Jamoat xavfsizligini ta'minlashda DXSH loyihalarini amalga oshirish uchun xususiy sherikni tanlash alohida shart va mezonlarni talab qiladi. Chunki, jamoat xavfsizligi ta'minlashga hissa qo'shadigan, shu sohaga investitsiya kiritadigan xususiy sherik – yuridik shaxs yoki tadbirkor munosib obro'ga ega bo'lishi hamda shubhali bitimlar ishtirokchisi sifatida ko'zga tashlanmagan bo'lishi lozim. O'z navbatida, jamoat xavfsizligi sohasidagi xususiy sherikni tanlash mezonlari, talablari va shartlari DXSH bitimi bo'yicha xususiy sherikni tanlashga oid umumiy qoidalardan farq qilishi hamda qo'shimchasiga xususiy sherikka nisbatan majburiyatlarni yuklashni talab qiladi. Bu ayniqsa, xavfsizlik, ma'lumotlarning maxfiyligi, axborotlarga nisbatan huquq to'liq vakolatli davlat organlarida bo'lishi bilan ahamiyatli sanaladi.

DXSHni amalga oshirish bo'yicha qarorlarni qabul qilish tartibining birinchi bosqichini ko'rib chiqib, shuni ta'kidlash mumkinki, DXSH bo'yicha keyingi qarorlarni qabul qilish uchun asos bo'lgan dastlabki bosqichda jiddiy qonunchilik kamchiliklariga duch kelish mumkin. Bunda birinchi navbatda, konseptual qaror va shartlarda yetarli ma'lumot mavjud emasligi ishda asoslantiriladi. Dissertatsiyada amalga oshirilgan tahlillar asosida "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida"gi qonunni "Xususiy sherikni aniqlash bo'yicha tanlov prinsiplari" nomli 25¹-modda bilan to'ldirish taklif qilinadi.

Ishda keltirilishicha, qonunchilikda DXSH to'g'risidagi bitimning ta'rifi keltirilmaydi. Buning o'rniga qonunchilikda bitim tuzish tartibi va shartlariga e'tibor qaratiladi. Zero, DXSH bitimining tushunchasi FKning 353-moddasida keltirilgan shartnoma tushunchasiga asoslanib shakllantirilishi va u quyidagicha ko'rinish hosil qilish mumkin: "davlat sherigi va xususiy sherikning muayyan muddatga yuridik jihatdan rasmiylashtirilgan, davlat-xususiy sheriklik loyahasini amalga oshirish uchun o'z resurslarini birlashtirishiga asoslangan hamkorligini tashkil etish uchun qonunchilikda belgilangan, shartlar va tartibida tuziladigan kelishuvi".

DXSH bitimini tuzish qoida tariqasida davlat sherigi tomonidan xususiy sherikni aniqlashning uchta tartibdan kelib chiqadi va ular quyidagilardir:

- 1) tender g'olibi
- 2) to'g'ridan-to'g'ri muzokaralar ishtirokchisi
- 3) maxsus loyihalashtirish kompaniyasi.

Dissertatsiyada bir qator huquqshunos olimlar (V.Gruzdev, M.I.Braginskiy, L.F.Gataulina, A.R.Axmetdinova, L.Magay)ning tender asosida fikrlari o'rganilib, DXSH doirasida tender asosida shartnoma tuzishning o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilinadi. Muallifning fikricha, tender, ya'ni shartnoma tuzish huquqini qo'lga kiritish bo'yicha tanlov – shartnoma tuzishning o'ziga xos usuli sifatida raqobat va musobaqalashuv asosida tashkilotchi (shartnoma tuzish istagida tenderni tashkil etgan shaxs) uchun eng maqbul, foydali va samarali hamda g'olib bo'lgan talabgor manfaatlariga ham xizmat qiladigan taklifni tanlab olishning muayyan taomillarga asoslangan, boshlanishi va yakuni tegishli shartlarga bo'ysundirilgan jarayondir.

Davlat sherigining qaroriga muvofiq muayyan holatlarda to'g'ridan-to'g'ri muzokaralar o'tkazish asosida tender o'tkazmasdan DXSH bitimini tuzishi mumkin bo'ladi. Bu holatlarga esa quyidagilar kiradi:

“- davlatning mudofaa qobiliyatini va xavfsizligini ta'minlashda;

- DXSHni amalga oshirishning zaruriy sharti hisoblangan intellektual mulk obyektlariga nisbatan istisno huquqlar, boshqa mutlaq huquqlar, yer uchastkasi, boshqa ko'chmas mol-mulk obyekti va o'zga mol-mulk muayyan shaxsga tegishli bo'lganda;

- Prezidentning farmonlari va qarorlari, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari bilan belgilangan hollarda”.

DXSH bitimini tuzish uchun asos bo'ladigan uchinchi yo'l bu - maxsus loyihalashtirish kompaniyasi hisoblanadi. “Xususiy sektor uzoq muddatli davlat-xususiy sheriklik munosabatlarida o'zi uchun risklarni minimallashtirishga e'tibor qaratadi va bunda maxsus loyihalashtirish kompaniyasi (SPV - Special Purpose Vehicle) ma'qul yo'l hisoblanadi”.

Zamonaviy dunyo voqealari umumiy maqbul holatni o'zgartiradigan, fuqarolarning huquq va erkinliklarini sezilarli darajada cheklaydigan, mamlakatlar va mintaqalar darajasida tinchlik va xavfsizlikni buzadigan, harbiy mojarolarni keltirib chiqaradigan voqealar bilan to'lib toshgan. Ushbu salbiy ko'rinishlar voqealarning normal kechishiga, davlat, jamiyat, korxonalar va tashkilotlarning normal faoliyatiga ta'sir qiladi. Favqulodda vaziyatlar va harbiy mojarolarning oqibatlarini bartaraf etish jarayonida davlat, albatta, xavfsizlik funksiyalarini birgalikda amalga oshirish, terrorizm va kiberterrorizmga qarshi kurashish, xavfsizlik va gumanitar yordam ko'rsatish, mavjud tahdidlarni bartaraf etish, muhim infratuzilmani himoya qilishning turli modellarida mujassamlanishi mumkin bo'lgan xususiy biznesning katta yordamini talab qiladi.

DXSH bo'yicha muhim bo'lgan kafolatlardan biri DXSH loyahasini amalga oshirish uchun ochilgan bank hisobvarag'i va u bo'yicha mablag'larni sarflash maqsadlarini belgilash hisoblanadi. Biroq qonunchilikda bu borada muayyan qoidalar nazarda tutilmagan. Dissertatsiyad mazkur bo'shliqni bartaraf etish maqsadida “Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida”gi qonunni “Bank hisobvarag'i nomli” 35¹-modda bilan to'ldirish taklif qilinadi.

DXSH sohasida islom moliyasi institutlarini joriy etish imkoniyatlarini taqdim etish uchun ishda FKga “Islom prinsiplariga muvofiq bo'lgan bitimlar va shartnomalar” nomli 34¹-bob kiritish taklif etiladi. Shuningdek, bobning 738¹-moddasi sifatida “muzoraba shartnomasi”ga oid qoidalarni ifodalash asoslantiriladi.

XULOSA

I. Ilmiy-nazariy xulosalar

1. Tadqiqot natijasida davlat-xususiy yeriklikka quyidagicha ilmiy-doktrinallik tarif ishlab chiqildi: DXSH - ommaviy hokimiyat organlari hamda tashkilotlari va xususiy tadbirkorlik subyektlarining davlatning bevosita

manfaatdorligi va nazorati ostidagi obyektga nisbatan sheriklarning resurslarini birlashtirish va tavakkalchilik xavfini taqsimlashni nazarda tutadigan, muhim davlat va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan loyihalarni samarali realizatsiya qilish maqsadida amalga oshiriladigan, muayyan muddatga yuridik rasmiylashtirilgan o'zaro foydali hamkorligidir.

2. Davlat-xususiy sheriklik prinsipi jamoat xavfsizligi va iqtisodiy rivojlanishning o'ziga xos jihatlarini ham, fuqarolarning xavfsizligini ham hisobga oladigan, aniq maqsadga erishish uchun mo'ljallangan hamkorlikning muhim shakli hisoblanadi. Boshqacha aytganda, DXSH modeli umumiy manfaatlarni himoya qilish maqsadida jamoat manfaatlarini himoya qilish funksiyasini amalga oshirishda ishtirok etadigan davlat va xususiy subyektlarning dinamik o'zaro ta'siri sifatida tavsiflanishi mumkin.

3. DXSH bitimining ta'rifi, uning mazmuni, ushbu bitimning predmeti belgilanmaganligidan kelib chiqadigan bo'lsak, uni bir necha shartnomalarning elementlarini o'z ichiga oladigan aralash shartnoma sifatida baholash o'rinli bo'ladi.

4. Davlatning xavfsizlik funksiyalari tabiiy, geosiyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy omillarning (yuzaga kelishi va oqibatlari bo'yicha) oldindan aytib bo'lmaydigan muammolariga duch kelmoqda. Davlat vujudga kelganidan buyon jamoat xavfsizligining ta'minlanishi, chegaralarning himoya qilinishi va ichki tartibning saqlanishi uchun javobgardir. Biroq, terrorizm va kiberjinoyatchilikning rivojlanishi, zamon o'zgarishi, shuningdek, xavf-xatarlarni oldindan bashorat qilishning imkonsizligi xususiy sektorni ushbu masalalarni hal qilishda mas'ul hamkorga aylantirdi. Barqarorlik konsepsiyasi muhim infratuzilmalarni muhofaza qilish sohasida jamoat xavfsizligini ta'minlashga xususiy biznesni jalb qilishning istiqbolli usuli bo'lishi mumkin.

5. Xususiy sektor davlat xavfsizlik idoralari bilan hamkorlikdan foyda ko'rishini mumkinligi, chunki ular evakuatsiya, transport va boshqa rejalarni oldindan muvofiqlashtirish; huquqni muhofaza qilish organlaridan jinoyatchilikka qarshi kurash sohasidagi tahdidlar va tendensiyalar to'g'risida ma'lumot olish, yordam so'rash yoki ma'lumot berish uchun munosabatlarni rivojlantirish; maxfiylik kabi huquqni muhofaza qilish organlari tomonidan korporativ ehtiyojlar to'g'risida tushunchani shakllantirish; xavfsizlik sohasida huquqni muhofaza qilish organlarining hurmatini oshirish mumkinligi taklif qilindi.

6. Davlatning xavfsizlik sohasidagi majburiyatlarini bajarishi dinamizm va noaniqlik xususiyatlariga va nihoyatda murakkab elementlarga ega bo'lgan asosiy vazifadir. Bugungi tahdidlar global miqyos kasb etib bormoqda va inqirozlar yanada salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Davlatning imkoniyatlari cheklangan resurslar va inqirozli vaziyatlarga ta'sir qilish mexanizmlarida ifodalanadi. Davlat va xususiy sektor resurslarining uyg'unligi xavfsizlikning muhim omillarini ta'minlash uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Yangi institusional subyektlarning holati DXSHni xavfsizlik sohasidagi hamkorlikning zamonaviy mexanizmi sifatida belgilaydi. Xususiy mulkdor boshqaruvning samaradorligi, o'z texnik va kasbiy salohiyatini ishga solib va

sarmoya kiritib, terrorizm va kiberjinoyatchilikka qarshi kurashish, muhim infratuzilmani himoya qilish, favqulodda vaziyatlar va ekologik ofatlarning oqibatlarini bartaraf etish kabi davlat tomonidan yuklatilgan vazifalarni bajarishi mumkin.

